



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING MAKTABGA TAYYORLOV GURUX BOLALARINI HADISLAR ORQALI AXLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI VOSITA VA USULLARI

Guliston davlat pedagogika instituti  
“Pedagogika va psixologiya kafedrası”  
Katta o‘qituvchi **U.X.Dusnazarov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni hadislar asosida tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda hadislarining bolalar axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, hadislar orqali ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, ma’naviy qadriyatlarni singdirish hamda tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishning innovatsion vosita va usullari asoslab berilgan. Maqolada interfaol metodlar, suhbat, hikoya qilish, rolli o‘yinlar va namuna ko‘rsatish kabi pedagogik yondashuvlarning samaradorligi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim, tayyorlov guruhi, hadislar, tarbiya, ma’naviy tarbiya, axloqiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, pedagogik metodlar, interfaol usullar, rolli o‘yinlar

**Аннотация:** В данной статье раскрываются теоретические и практические основы воспитания детей подготовительных групп дошкольных образовательных организаций на основе хадисов. Анализируется влияние хадисов на нравственное, духовное и социальное развитие детей. Обосновываются эффективные методы и средства формирования положительных поведенческих качеств, духовных ценностей и организации воспитательного процесса. Особое внимание уделяется применению интерактивных методов, беседы, рассказа, ролевых игр и метода личного примера.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, подготовительная группа, хадисы, воспитание, духовное развитие, нравственное воспитание, социализация, педагогические методы, интерактивные методы, ролевые игры

**Annotation:** This article explores the theoretical and practical foundations of educating children in preparatory groups of preschool educational institutions based on hadiths. The study analyzes the impact of hadiths on children's moral, spiritual, and social development. It also substantiates effective methods and tools for forming positive behavior, instilling spiritual values, and organizing the educational process. Special attention is given to interactive methods, conversations, storytelling, role-playing games, and modeling as pedagogical approaches.

**Keywords:** Preschool education, preparatory group, hadiths, upbringing, moral development, spiritual education, socialization, pedagogical methods, interactive methods, role-playing games

Maktabgacha yoshdagi katta gurux bolalarini axloqiy tarbiyalashda hadislarining ahamiyati beqiyosdir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni bolaning ma’naviy dunysini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqazo etadi. Hadislar bola qalbida ezgulik hissiyotini uyg‘otib, uning xulqini ijobiy tomonga yo‘naltiradi. Hadislar orqali talqin qilingan g‘oyalar bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) “Farzandlaringizga va ahlingizga yaxshilikni ta’lim bering va ularga odobni o‘rgating” deganlar. Ushbu mas’uliyatni his etgan holda barcha ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyasiga jiddiy e’tibor berishlari va har qanday sharoitda ham farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishga vaqt topishlari lozim. Chunki, farzanddagi yomon xulq va uning noxush oqibatlari uchun avvalo ota-ona mas’uldir.

Qadimdan ota-bobolarimiz bolalarni umuminsoniy tuyg‘ular, falsafiy qarashlar, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash maqsadida matallar, maqollar, rivoyat va hadislardan foydalanganlar.

Axloq-odobga doir hadislar esa avlodni tarbiyalashdek ishga katta hissa qo‘shadi. Bolalarga axloq-odob, o‘zaro do‘stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat kabi fazilatlarni va hasad, xiènat, yolg‘onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarni bilishi va ularga nisbatan o‘z mustaqil munosabatlarini bildira olishlari lozim.

Maktabgacha yshdagi bolalar uchun hadislar katta ta’sir kuchiga ega. Hadislar bola qalbida ezgulik hissiyotini uyg‘otib, uning xulqini ijobiy tomonga yo‘naltiradi. Hadislar orqali talqin qilingan fikrlar bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqazo etadi.

Bolalarning axloqiy tarbiyasini tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- turli yosh guruhlari uchun sodda axloqiy tushunchalar haqida ma’lumot berish;
- bola doimiy ravishda “nima yaxshi-yu, nima yomon?” so‘zining ma’nosini anglab, o‘z fikrini sodda bayon etishga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi

Pedagogikada “ustuvor maqsad” degan tushuncha mavjud. Ushbu tushunchaga asoslanib, tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishga ma’naviy-axloqiy tarbiyani asosiy maqsad sifatida belgiladik. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehr-shafqat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, do‘stlik, mas’uliyatlilik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish tarbiyachining bevosita mashg‘ulotdagi faoliyatidan boshlanadi. Ma’naviy- axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda biz o‘zbek milliy pedagogikasiga murojaat qilamiz. Professor Q. Yo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, o‘zbek milliy pedagogikasi uchun islom falsafasi metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Maktabga tayyèrov (6-7) èshdagi bolalar o‘zining psixofiziologik jihatdan eng murakkab davr hisoblanadi. Bolakaylar birinchi marta o‘zini onasidan ajrata boshlaydi. Ya’ni “men o‘zim” haqiqiy motivatsiyaga aylanadi. Bu davrda bola o‘zini butunlay mustaqil shaxs sifatida anglaydi. Bu tengdoshlari bilan kechadigan erkin muloqot davomida namoyon bo‘ladi. Endilikda bolalar hamkorlikdagi faoliyatda shaxsiy

qarashlarini himoya qilish, hayotiy vaziyatlarda axloqiy tanlovni amalga oshira oladilar. Jinsidan kelib chiqib, unga mos bo‘lgan yurish-turish qoidalarini ongli tarzda bajaradilar. Maktabgacha axloqiy-irodaviy tayyrgarlikning qaror topishida, shuningdek, tayorlov guruhidagi bola shaxsiy xulq atvoridagi musaqillik, uyushganlik, intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Axloqiy fazilatlarni bolaning eng kichik yoshidan oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida shakllantirib borish kerak. Bolalar shuurida eng yaxshi axloqiy fazilatlarni shakllantirish ularning juda yoshligidan boshlanadi. Dastlabki tarbiyaning poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa, bolaning dunyo qarashi, didi shunchalik rivojlanadi, kamol topadi. Bolalarda milliy g‘urur, inson sha’ni, insonga mehr-muhabbat, odamiylik, to‘g‘rilik, mardlik kabi insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishda hadislarning o‘rni beqiyosdir. Insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni yuksak ma’naviyat, ma’daniyat va mustaqil fikrlash hamda milliy ongni shakllantiradi. Odob-axloq ilmini o‘qish, yozish, kuzatish va nasihatlar eshitish orqali amalga oshirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hadislarni tinglashlari, keltirilgan hadislariga mos sur’atlarni bo‘yash va ularni yod olish orqali o‘rganishlari mumkin.

Ushbu ma’noda milliy tarbiyamizni o‘rganish, undagi pand-nasihatlar, durdona so‘zlar, hikmatli va ibratli hikoyalardan oziqlanib, ma’naviy jihatdan yuksalish mumkin. Ayniqsa bu bebaho merosdan ta’lim-tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalana olish katta ahamiyat kasb etadi.

Hadislar o‘zida axloqning asosiy qirralari bo‘lgan – birdamlik ( shaxsiy manfaatlarning umumiylikning yuqori ko‘rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo‘ysundirilishi) va insonparvarlik ( shaxsga o‘z-o‘zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo‘lish). Axloqiy ongning o‘ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha’n, qadr-qimmat kabi hislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bizga ma’lumki, jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o‘zaro bog‘liq vazifani shart qilib qo‘yadi:

a) jamiyat ongida me’yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko‘rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish;

b) inson o‘z xatti-harakatlarini yo‘naltirishi va harakatlantira olishi, shuningdek, ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya’ni boshqa kishilarga talab qo‘ya bilishi va ularning hatti-harakatlarini yo‘naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek, ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya’ni boshqa kishilarga talab qo‘ya bilishi va ularning xatti- harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog‘liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e’tiqod, ma’naviy moyilliklar, his-tuyg‘ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi.

Axloq-odobga doir ko‘p ma’no hadislarni bolalar uchun nasihat sifatida o‘qib berish va ularni tahlil qilib, yod olish bolaning ma’naviy dunyosini ongini, axloqiy xislatlarini, shaxsiy sifat va xulqini tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni hadislar orqali tarbiyalashda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish lozim:

- axloqiy tushunchalar haqida ma’lumot berish;

- har bir o‘rganilgan hadisni rasmlar, ko‘rgazmalar va jonli harakatlar orqali tushuntirish;

- hadislardagi mazmun va g‘oyadan to‘g‘ri xulosa chiqara olishga erishish; Bogchada tayyrov guruhi va maktab ta’limi bolalarini hadislar orqali tarbiyalashning quyidagi pedagogik sharoitlarini samarali vosita sifatida ko‘rsatishimiz mumkin:

- muloqot;
- hamkorlik;
- to‘g‘ri psixologik muhitni yaratish;
- emosional kechinmalarni uyg‘otish ;

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining 3-bobida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv haqida so‘z boradi, bunda, o‘z bora‘etgan bola shaxsini hayotga tayyrlash, unda haytiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilishga tayergarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subekti sifatidagi yaxlit rivojlanishni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy muhim kompetensiyasi sifatida kommunikativ va ijtimoiy kompetensiya keltiriladi.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishganda avvalo, salom bilan so‘z boshlash kerakligini bilishi lozim.

“Bir-biringiz bilan salomlashib yuringlar shunda o‘rtalaringda mehr- muhabbat uyg‘onur”.

“Salom” – Tangrining yerdagi ismlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Zero, mo‘min kishi odamlar oldidan o‘tib borayotib, ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko‘p savobga erishadi. Mabodo alik olishmasa, ulardan yaxshiroq va afzalroq zotlar ya’ni farishtalar alik olishadi.

“Ko‘rishganimiz bilan salomlashganimizda, gunohlarimiz daraxt barglari to‘kilgani kabi to‘kiladi”.

Salom berib alik olishda qo‘llaniladigan birikma arabcha bo‘lib, “Assalomu alaykum” – “Sizlarga salomatlik tilayman” va bunga javoban qilib, “Vaalaykum assalom” – “Sizlarga ham salomatlik tilayman” ma’nolarini bildirishi haqida tushunchalar tarbiyalanuvchilarga uqtirilsa, salomlashish haqidagi hadisning tahlili oson kechadi

Odob barcha yaxshi va ezgu hislatlarni o‘z ichiga oladi. “Adab” – chaqirmoq ma’nosida bo‘lib, kishilarni yaxshilikka da’vat qilgani, yomonlikdan qaytargani uchun shu xislat “odob” deb atalgan.

Quyida boshqa insonlar bilan muloqot qilishga tayyrlash uchun ham hadislar keltiriladi.

“Izn uch martagacha so‘raladi. Agar izn berilsa, kiring, yo‘qsa qaytavering”.

“Barcha yaxshilik – xushxulqlikdadir. Barcha gunoh va yomonlik – dildagi g‘ashlik va uyatli ishdir”.

Abdulloh ibn Soibning bobosidan rivoyat qilinadi: “Men Rasululloh (s.a.v) dan hech qaysingiz oshnasining narsasini hazil qilib ham olmasin. Bittangiz birodarining asosini olsa, uni egasiga qaytarib bersin”, - degan gaplarni eshitdim, dedilar

Abdulloh ibn Amr (r.a) aytdilar. Rasululloh (s.a.v.) “Bir kishi ikki odamning orasini ularning iznisiz yorib o‘tishi halol emas”, dedilar.

Abdulloh ibn Ma’sud (r.a) dan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v.): Agar uch kishi turgan bo‘lsa, ikki kishi uchinchi oldida o‘zaro shivirlamasin”, dedilar.

Abu Hurayra (r.a.) ikki kishini ko‘rib, ulardan bittasiga “Bu kishi senga kim bo‘ladi?” – deb so‘radilar. U: “Bu – otam bo‘ladilar”, degan edi, Abu Hurayra (r.a.): “Unday bo‘lsa otangning ismini aytib chaqirma, yurishda undan ilgari yurma va undan yuqori joyda o‘tirma”, deb nasihat qildilar.

“Har bir odamning amakisi izzat-hurmat va munosabatda o‘z otasi kabidir”.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhi bolalarini hadislar orqali axloqiy tarbiyalash bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hadislar bolalarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida muhim tarbiyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali bolalarda halollik, mehr-oqibat, hurmat, sabr-toqat kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Maqolada tahlil qilinganidek, hadislar asosida tarbiya berish jarayoni samarali bo‘lishi uchun uni bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etish zarur. Ayniqsa, suhbat, hikoya qilish, rolli o‘yinlar, namuna ko‘rsatish hamda interfaol metodlardan foydalanish yuqori natija beradi. Bu usullar bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki ularni amaliy xulq-atvorda qo‘llashiga ham yordam beradi. Shuningdek, tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, hadislar asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi, ularning jamoada o‘z o‘rnini topishiga va ijtimoiy me’yorlarga rioya etishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa ularni maktab ta’limiga har tomonlama tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida hadislar orqali axloqiy tarbiyani tashkil etish samarali pedagogik vosita bo‘lib, u bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Qur’oni Karim. – Toshkent: Movarounnahr, 2020.
2. Imom Buxoriy. *Al-jome’ as-sahih*. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.
3. Imom Termiziy. *Sunan at-Termiziy*. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018.
4. Al-G‘azzoliy, Abu Homid. *Ihyo ulum ad-din*. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
5. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

7. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
8. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2022.
9. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
10. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2006.
11. Quronov M. *Pedagogika*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
12. Xasanboyeva O. *Maktabgacha pedagogika*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2016.
13. Mavlonova R. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
14. Musurmonova O. *Ma’naviy tarbiya asoslari*. – Toshkent: Fan, 2013.
15. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
16. Piaget J. *The Psychology of the Child*. – New York: Basic Books, 2000.
17. Kohlberg L. *Essays on Moral Development*. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
18. Berk L. *Child Development*. – Boston: Pearson, 2013.
19. Santrock J.W. *Educational Psychology*. – New York: McGraw-Hill, 2011.
20. Noddings N. *Caring: A Relational Approach to Ethics and Moral Education*. – Berkeley: University of California Press, 2013.